

“YASHIL MAKON” MILLIY KONSEPSIYANING EKOLOGIK MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHDAGI AHAMIYATI.

Muhiddinova Hakimaxon G'ulomovna

Namangan davlat texnika universiteti

muhiddinovahakimaxon@gmail.com.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan "Yashil makon" milliy loyihasining ekologik muammolarni hal etishdagi o'rni va istiqbollari ilmiy tahlil etiladi. Shuningdek, loyiha atrof-muhitga ta'siri va barqaror rivojlanishga qo'shayotgan hissa iqtiboslar asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yashil makon, ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi, barqaror rivojlanish, ko'chat ekish.

XXI asrda ekologik muammolar dunyo miqyosida dolzarb masalaga aylangan. Bu ekologik muammolar insoniyat taraqqiyoti va hayot sifatiga tahdid soluvchi omillardan biriga aylandi. Aholi sonining ortishi, sanoatning rivojlanishi va tabiatga nisbatan e'tiborsizlik natijasida atrof-muhit ifloslanmoqda, cho'llanish jarayonlari kuchaymoqda. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, atmosferaga issiqxona gazlarining ortiqcha chiqarilishi, tuproq va suv resurslarining degradatsiyasi, biologik xilma-xillikning kamayishi kabi muammolar insoniyat farovonligiga bevosita tahdid solmoqda [IPCC, 2021] va biologik xilma-xillikning kamayishi kabi global ekologik muammolar har bir davlatni, jumladan, O'zbekiston hududida ham ayniqsa cho'llanish, suv taqchilligi va havoning ifloslanishi kabi ekologik muammolar kuzatilmoqda [Karimov, 2015]. Ushbu muammolarning oldini olish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida, 2021-yilda "Yashil makon" milliy loyihasi boshlangan bo'lib, u mamlakat ekologik strategiyasining asosiy yo'nalishiga aylandi. "Yashil makon" milliy konsepsiya- O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim strategik tashabbusdir. Ushbu muammolarning oldini olish va atrof-muhit barqarorligini ta'minlash maqsadida, 2021-yilda "Yashil makon"

milliy loyihasi boshlangan bo'lib, u mamlakat ekologik strategiyasining asosiy va tarkibiy qismi yo'nalishiga aylandi.

“Yashil makon”konsepsiyaning bosh maqsadi-mamlakat hududini keng ko'lamda ko'kalamzorlashtirish orqali ekologik barqarlorlikni mustahkamlash va ekologik muvozanatni tiklashdir.Konsepsiyaga ko'ra,2021-2024-yillar davomida O'zbekistonda bir milliard tup daraxt va butalar ekilishi rejalashtirilgan.Bu dastur doirasida, har bir ekilgan daraxt va butalar orqali iqlim o'zgarishining salbiy oqibatlarini yumshatish, havoning sifatini yaxshilash, cho'llanish va tuproq eroziyasini oldini olish maqsadi qilingan. (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-noyabrdagi PQ-31-son farmoni).

Daraxtlar atmosferadagi karbonat angidrid (CO_2) gazini yutib, kislorod ishlab chiqarishi orqali havoning sifatini yaxshilaydi va havoni kislorod bilan boyitadi.BMT tadqiqotlarga ko'ra, bir tup yetuk daraxt yiliga 21-22 kilogramm karbonat angidridni yuta oladi va kislorod ishlab chiqaradi. Bu esa shahar va sanoat hududlaridagi ifloslanish darajasini kamaytirishga xizmat qiladi[2].

Yashil hududlar issiqxona effekti ta'sirini kamaytiradi, chunki daraxtlar nafaqat karbon gazini yutadi, balki o'z soyasi orqali atrof-havoning haroratini pasaytirishga yordam beradi [Chiesura, 2004]. Shu tariqa, "Yashil makon" loyihasi O'zbekistonda haroratning ortishini nazorat ostida ushlab turishga hissa qo'shadi[3].

Cho'llanish bugungi kunda O'zbekistonning ayrim hududlarida ,xususan,Qoraqalpog'iston Respublikasida keskin muammo sanaladi.”Yashil makon” doirasida amalga oshiralayotgan ko'chat ekish ishlari tuproqni shamol va suv eroziyasidan himoya qilmoqda.Tuproqni ushlab turuvchi ildiz tizimiga ega o'simliklar va daraxtlar eroziya va cho'llanish jarayonlarini sekinlashtiradi. FAO (2017) ma'lumotlariga ko'ra,o'simlik qoplamini eroziya tezligi 30-50%gacha kamaytirish mumkinva bundan tashqari yashil hududlar tuproq unumdorligini saqlab qolish va suvni tabiiy saqlash imkonini beradi. Shu jihatdan, "Yashil makon" nafaqat

shahar hududlarida, balki qishloq va cho'l zonalarida ham ekologik barqarorlikni ta'minlamoqda[4].

“Yahil makon” konsepsiyasi faqat shahar markazlarini emas, balki chekka hududlarni ham ko'kalamzorlashtirishni ko'zda tutadi. Ko'kalamzor hududlar biologik xilma-xillikni saqlash uchun muhim yashash muhitini yaratadi. Qushlar, hasharotlar va boshqa hayvonot dunyosi yashil hududlardan oziqlanish va ko'payish manbai sifatida foydalanadi [MEA, 2005]. Bu hayvon turlari o'simlik va hayvon turlari uchun tabiiy yashash muhitini yaratdi. "Yashil makon" loyihasi bu borada ham tabiiy ekotizimlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qilmoqda[5].

Ko'kalamzor maydonlar atrof-muhitdagi haroratni o'rtacha 2-5°C ga pasaytiradi (IPCC, 2021 hisobotiga ko'ra). Daraxtlar nafaqat soya beradi, balki suv bug'lanishi orqali havo namligini oshirib, shahar mikroiklimini yaxshilaydi.

Daraxt ekish tadbirlari orqali aholining ekologik ongini oshirish, ularni tabiatga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishga o'rgatish ko'zda tutilmoqda. UNESCO (2021) fikriga ko'ra, ekologik ta'lim va tarbiya atrof-muhitni asrashning eng samarali usullaridan biridir.

2021–2024 yillar davomida "Yashil makon" doirasida 600 milliondan ortiq daraxt va butalar ekildi [O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi, 2024]. Natijada ayrim shaharlarda havoning ifloslanish darajasi sezilarli darajada pasaygani, ayrim hududlarda esa yerning shamol eroziyasi oldi olingani kuzatildi[5].

Kelgusida ushbu loyihani yanada samarali davom ettirish uchun quyidagilar rejalashtirilmoqda:

- Suv tejamkor texnologiyalarni, xususan, tomchilatib sug'orishni keng joriy etish,
- Mahalliy iqlimga mos va kam suv talab qiladigan o'simlik turlarini ko'proq ekish,

- Aholi o'rtasida ekologik madaniyatni oshirish.

• 2023 yil yakuniga qadar, "Yashil makon" konsepsiyasi doirasida mamlakatda 380 million tupdan ortiq daraxt va butalar ekildi. Shuningdek, Orolbo'yi hududida "Yangi Orol o'rmonlari" loyihasi asosida keng ko'lamli ko'chat ekish ishlari olib borilmoqda, bu esa cho'llanish va ekologik inqirozni kamaytirishga xizmat qilmoqda[6].

"Yashil makon" milliy konsepsiyasi — O'zbekistonning ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lidagi muhim strategik tashabbusidir. Konsepsiya doirasida amalga oshirilayotgan ko'kalamzorlashtirish ishlari nafaqat bugungi ekologik vaziyatni yaxshilaydi, balki kelajak avlodlarga sog'lom va yashashga qulay muhit yaratib beradi. Aholining ekologik ongini oshirish va har bir fuqaroni faol ishtirokga jalb etish orqali bu yirik loyiha o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatmoqda. Shubhasiz, "Yashil makon" tashabbusi O'zbekistonning ekologik taraqqiyoti va barqaror rivojlanish strategiyasining muhim tarkibiy qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 30 noyabrdagi PQ-31-son Farmoni.
2. United Nations Environment Programme (UNEP), 2022.
3. Food and Agriculture Organization (FAO), 2020.
4. Intergovernmental Panel on Climate Change (IPCC) Report, 2021.
5. UNESCO Global Environmental Education Report, 2021.
6. Milliy Ekologik Hisobot, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya vazirligi, 2023.